

## RAQAMLASHTIRISH ASOSLARI VA UNING YANGI O‘ZBEKISTONNI QURISHDAGI O‘RNI: SIYOSIY-HUQUQIY VA IJTIMOYIY-IQTISODIY TAHLIL

**Xashimova Dilyora Paxritdinovna**

Tashkent International University  
“Aniq fanlar va raqamli texnologiyalari” kafedrası  
dotsenti

E-mail: [hdiyora72@gmail.com](mailto:hdiyora72@gmail.com)

**Kurbanaliyev Sardor Alidjanovich**

Tashkent International University  
“Yurisprudensiya” yo‘nalishi, 3- bosqich talabasi  
E-mail: [sardorkurbon@gmail.com](mailto:sardorkurbon@gmail.com)

### Аннотация

Mazkur maqolada raqamlashtirish jarayonining Yangi O‘zbekistonni barpo etishdagi siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy o‘rni kompleks tahlil qilindi. Tadqiqotda elektron hukumat tizimi, raqamli iqtisodiyot va inson kapitalini rivojlantirish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik asoslab berildi. Shuningdek, davlat boshqaruvida shaffoflikni ta‘minlash, korrupsiyani kamaytirish va xizmatlar samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning roli ko‘rsatildi. Tahlillar asosida O‘zbekistonda raqamli transformatsiya bosqichlari, infratuzilma rivoji hamda IT sohasi eksport salohiyati baholandi. Natijada raqamlashtirish iqtisodiy o‘rish drayveri, ijtimoiy tenglikni ta‘minlovchi omil va davlat boshqaruvini modernizatsiya qiluvchi vosita sifatida namoyon bo‘lgani aniqlandi. Muammolar sifatida raqamli tafovut, kiberxavfsizlik va kadrlar yetishmovchiligi qayd etildi.

**Kalit so‘zlar:** raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat, IT Park, raqamli transformatsiya, kiberxavfsizlik, inson kapitali

### Аннотация

В статье был проведён комплексный анализ роли цифровизации в построении Нового Узбекистана с политико-правовой и социально-экономической точек зрения. Обоснована взаимосвязь между электронным правительством, цифровой экономикой и развитием человеческого капитала. Показана роль цифровых технологий в обеспечении прозрачности государственного управления, снижении коррупции и повышении эффективности услуг. На основе анализа оценены этапы цифровой трансформации в Узбекистане, развитие инфраструктуры и экспортный потенциал IT-сектора. Установлено, что цифровизация выступила драйвером экономического роста, инструментом социальной справедливости и модернизации управления. Отмечены проблемы цифрового разрыва, кибербезопасности и нехватки кадров.

**Ключевые слова:** цифровизация, цифровая экономика, электронное правительство, IT Park, цифровая трансформация, кибербезопасность, человеческий капитал

## Abstract

This article examined the role of digitalization in building New Uzbekistan from political-legal and socio-economic perspectives. The interconnection between e-government, digital economy, and human capital development was substantiated. The study demonstrated the role of digital technologies in ensuring transparency, reducing corruption, and improving public service efficiency. Based on analysis, the stages of digital transformation, infrastructure development, and IT export potential in Uzbekistan were evaluated. The findings showed that digitalization acted as a driver of economic growth, a tool for social equality, and a mechanism for public administration modernization. Key challenges identified included digital inequality, cybersecurity risks, and shortage of skilled personnel.

**Keywords:** digitalization, digital economy, e-government, IT Park, digital transformation, cybersecurity, human capital

## KIRISH

XXI asr insoniyat tarixida tub burilish davri sifatida, “To‘rtinchi sanoat inqilobi” (Industry 4.0) davri sifatida muhrlanmoqda. Bugungi kunda davlatlarning qudrati nafaqat ularning tabiiy boyliklari yoki harbiy salohiyati, balki intellektual salohiyati, yuqori texnologiyalarni o‘zlashtirish darajasi va ma’lumotlarni boshqarish qobiliyati bilan o‘lchanmoqda. Jahon hamjamiyati an’anaviy boshqaruv va iqtisodiyot modellaridan voz kechib, to‘liq raqamli ekotizimga o‘tayotgan bir pallada, O‘zbekiston ham o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Ushbu bosqich siyosiy leksikonda “Yangi O‘zbekiston” deb nomlanadi va uning poydevori, shak-shubhasiz, raqamlashtirish jarayonlariga asoslanadi.

Raqamlashtirish - bu shunchaki qog‘oz hujjatlarni elektron shaklga o‘tkazish yoki internet tezligini oshirish emas. Bu - davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning yangi falsafasi, iqtisodiy o‘shishning yangi drayveri va fuqarolarning hayot sifatini tubdan yaxshilash mexanizmidir. 2020-yil 22-sentyabr kuni tarmoq va hududlarda raqamli iqtisodiyot hamda elektron hukumatni joriy qilish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Raqamli iqtisodiyotsiz mamlakat iqtisodiyotining kelajagi yo‘q” [1]. Bu so‘zlar shunchaki shior emas, balki chuqur tahlilga asoslangan pragmatik haqiqatdir. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar yalpi ichki mahsulotning (YIM) o‘shishiga, soyadagi iqtisodiyotning qisqarishiga va eng muhimi, korrupsiyaviy omillarning keskin kamayishiga olib keladi [2].

Yangi O‘zbekistonni barpo etish g‘oyasi uchta asosiy ustunga tayanadi: qonun ustuvorligi, inson kapitalini rivojlantirish va kuchli iqtisodiyot. Raqamlashtirish ushbu uchala yo‘nalishni bog‘lovchi va harakatga keltiruvchi kuchdir. Birinchidan, huquqiy davlat qurishda inson omilini kamaytirish, sud-huquq tizimining shaffofligini ta’minlash va byurokратиyani yo‘q qilish faqat raqamli yechimlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Ikkinchidan, inson kapitali bugungi kunda IT savodxonligi bilan bevosita bog‘liq. Uchinchidan, jahon bozoriga chiqish, eksport salohiyatini oshirish va investitsiyalarni jalb qilishda raqamli platformalar hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishda ma’lum qadamlar qo‘ygan bo‘lsa-da, bu jarayonlar ko‘proq fragmentar xarakterga ega edi. Tizimli yondashuvning yetishmasligi, infratuzilmaning eskirganligi va raqamli tafakkurning shakllanmaganligi jiddiy to‘siq bo‘lib keldi. Ammo 2017-yildan boshlab qabul qilingan Harakatlar strategiyasi va keyinchalik “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” raqamli transformatsiyani davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirdi.

Ushbu maqolaning maqsadi - raqamlashtirishning nafaqat texnik, balki ijtimoiy-siyosiy mohiyatini ochib berishdir. Biz raqamlashtirishni Yangi O‘zbekistonning “DNK”si sifatida ko‘rib chiqamiz.

### ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekistonning global raqamli maydondagi o‘rnini tushunish uchun elektron hukumatning yetuklik modellariga murojaat qilish lozim. Akademik adabiyotlarda raqamli tizimlar evolyutsiyasini baholashda bir necha asosiy yondashuvlar ajratib ko‘rsatiladi. Leyn va Li modeli to‘rt bosqichli rivojlanish jarayonini taklif qiladi: kataloglashtirish (ma’lumotlarni oddiy taqdim etish), tranzaksiya (ikki tomonlama aloqa), vertikal integratsiya (hokimiyat bo‘g‘inlari o‘rtasidagi aloqa) va gorizontaal integratsiya (funktional yo‘nalishlar bo‘yicha idoralararo hamkorlik). [3] Shu bilan birga, Mun modeli ushbu ko‘rinishni kengaytirib, siyosiy bosqichni qo‘shadi, unda fuqarolar qaror qabul qilish jarayonlarida va elektron ovoz berishda faol ishtirok etishi mumkin. [4]

O‘zbekistonning joriy progressi tahlili shuni ko‘rsatadiki, mamlakat kataloglashtirish va tranzaksion xizmatlarni Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali joriy etish bosqichlaridan muvaffaqiyatli o‘tdi, hozirda portalda 700 dan ortiq xizmatlar mavjud. [5] Chuqur gorizontaal integratsiya bosqichiga o‘tish OneID tizimining joriy etilishi va 100 dan ortiq idoraviy axborot tizimlarining integratsiyalashuvi bilan tavsiflanadi, bu esa ma’lumotnomalarni qog‘oz shaklida taqdim etish zaruriyatini minimallashtiradi.

1-jadval.

#### Elektron hukumat yetuklik modellari va O‘zbekistonga nisbatan baholash<sup>1</sup>

Yetuklik modeli	Asosiy rivojlanish bosqichlari	O‘zbekistonga nisbatan baholash
Leyn va Li (2001)	Kataloglashtirish, tranzaksiya, vertikal va gorizontaal integratsiya	O‘zbekiston gorizontaal integratsiyani yakunlash bosqichida [6]
Mun (2002)	Axborot, tranzaksiya, servis, siyosiy bosqichlar	Servis bosqichiga urg‘u berilgan; siyosiy ishtirok (E-participation) rivojlanishni talab qiladi [4]
“Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi	Infratuzilmani rivojlantirish, tarmoqlarni raqamlashtirish, kadrlarni tayyorlash	Barcha yetuklik darajalarini qamrab oluvchi kompleks milliy reja [7]

<sup>1</sup> Manbalar asosida muallif ishlanmasi

O‘zbekiston modelining o‘ziga xosligi “yuqoridan-pastga” (top-down) yondashuvida bo‘lib, bunda davlat xususiy sektor uchun zarur huquqiy va infratuzilmaviy bazani yaratib, innovatsiyalarning asosiy drayveri bo‘lib chiqmoqda[8]. Bu yondashuv Janubiy Koreya tajribasi bilan mos keladi, uning elektron hukumat modeli O‘zbekiston milliy strategiyalarini ishlab chiqishda asos qilib olingan [9]. Biroq, Koreya tajribasidan farqli o‘laroq, O‘zbekiston dasturiy ta‘minotni joriy etish sur‘atlariga har doim ham ulgurmayotgan huquqiy institutlarni tezlashtirilgan moslashtirish zaruriyatiga duch kelmoqda.

## **METODOLOGIYA**

Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullar qo‘llanildi:

- normativ-huquqiy hujjatlar tahlili
- tizimli yondashuv
- qiyosiy tahlil
- statistik tahlil
- xalqaro reytinglar qiyosiy tahlili

Ma‘lumotlar manbai sifatida milliy strategiyalar, davlat dasturlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va rasmiy statistik ma‘lumotlardan foydalanildi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Har qanday buyuk o‘zgarish mustahkam huquqiy asosni talab qiladi. Yangi O‘zbekistonda raqamlashtirish siyosati stixiyali emas, balki chuqur o‘ylangan qonunchilik bazasiga asoslanadi. Bu boradagi eng muhim hujjat, shubhasiz, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabr PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonidir [10]. Ushbu hujjat mamlakatni kelgusi o‘n yillikda raqamli rivojlantirishning “Yo‘l xaritasi” bo‘lib xizmat qilmoqda.

Strategiya ikki asosiy yo‘nalishni qamrab oladi: hududlarni raqamlashtirish va tarmoqlarni raqamlashtirish. Bu degani, raqamli o‘zgarishlar faqat Toshkent shahrida emas, balki eng chekka qishloqlarda ham sezilishi shart. Huquqiy jihatdan olganda, O‘zbekiston Konstitutsiyasining yangi tahririda ham axborot erkinligi va shaxsga doir ma‘lumotlarning himoya qilinishi bo‘yicha normalarning mustahkamlanganligi raqamli huquqlar (digital rights) tushunchasining milliy qonunchilikka kirib kelayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi, “Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi va “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi qonunlar raqamli makonning xavfsiz va tartibli ishlashini ta‘minlamoqda. Institutsional o‘zgarishlar sifatida Raqamli texnologiyalar vazirligining (sobiq AKT vazirligi) vakolatlarining kengayishi va har bir davlat organida raqamlashtirish bo‘yicha rahbar o‘rinbosari lavozimining joriy etilishini ko‘rsatish mumkin. Bu - “raqamli vertikal” boshqaruv tizimining yaratilishidir.

Yangi O‘zbekistonning eng ko‘zga ko‘ringan yutug‘i - bu elektron hukumat (e-Government) tizimining rivojlanishidir. “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari

xalqqa xizmat qilishi kerak” degan tamoyil aynan raqamli texnologiyalar orqali hayotga tatbiq etilmoqda.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) bugungi kunda yuzlab xizmatlarni uydan chiqmasdan olish imkonini bermoqda. Bu oddiy qulaylikdan ko‘ra kattaroq ijtimoiy ahamiyatga ega:

*Korrupsiyani yo‘qotish:* Fuqaro va mansabdor o‘rtasidagi jonli muloqot qancha kam bo‘lsa, pora olish ehtimoli shuncha kamayadi. Inson omilining chiqarib tashlanishi davlat xizmatlarining shaffofligini ta‘minlaydi.

*Vaqt va mablag‘ tejamkorligi:* Avvallari oddiy ma‘lumotnoma olish uchun kunlab navbat kutish talab qilingan bo‘lsa, hozir bu soniyalar ichida hal bo‘lmoqda.

*Yagona baza integratsiyasi:* “Raqamli ID”, FHDYo, Notarius va Ichki ishlar bazalarining integratsiyasi fuqarolardan ortiqcha hujjat talab qilish amaliyotiga chek qo‘ydi (masalan, sudlanmaganlik haqida ma‘lumotnoma talab qilishning bekor qilinishi).

Bundan tashqari, sud tizimining raqamlashtirilishi (E-sud tizimi) odil sudlovga erishishda muhim qadam bo‘ldi. Ishlarni elektron taqsimlash tizimi sudyalarga bosim o‘tkazish yoki ishlarni «tanish-bilishchilik» orqali taqsimlashning oldini oladi [11].

Raqamlashtirish - iqtisodiy o‘shishning lokomotividir. O‘zbekistonda IT Park (Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki) tashkil etilishi tarixiy qaror bo‘ldi. Oxirgi besh yilda raqamli sohadagi eksport hajmi 170 million dollardan qariyb 1 milliard dollargacha oshdi. Park rezidentlari soni 2800 tadan oshdi, shundan 750 tadan ortig‘i xorijiy kompaniyalardir [7].

*Soliq va bojxona imtiyozlari:* IT-Park rezidentlari aksariyat soliqlardan ozod qilingan, bu biznesni legallashtirish va venchur investitsiyalarni jalb qilishni rag‘batlantiradi (o‘tgan yili investitsiyalar hajmi 70 million dollarga yetdi) [7].

*Ish o‘rinlarini yaratish:* Yuqori texnologiyalar sohasida allaqachon 40 000 ga yaqin yoshlar band bo‘lib, ularning daromadlari mamlakatdagi o‘rtacha ko‘rsatkichlardan sezilarli darajada yuqori [7].

*Ta‘lim tashabbuslari:* “Bir million o‘zbek dasturchisi” loyihasi va Coursera bilan hamkorlik bozorni mutaxassislar bilan to‘ldirish uchun zarur bo‘lgan bazaviy kadrlarni tayyorlashni ta‘minladi [12].

Raqamli iqtisodiyotning yana bir muhim jihati - bu «yashirin iqtisodiyot»ga qarshi kurash. Onlayn nazorat-kassa mashinalari, tovarlarni markirovkalash va elektron hisob-fakturalar tizimi soliq tushumlarining oshishiga va biznes muhitining sog‘lomlashishiga olib keldi. Raqamli to‘lov tizimlari (Payme, Click, Uzum) naqd pul aylanmasini qisqartirib, bank tizimining barqarorligini oshirmoqda.

Qishloq xo‘jaligida ham “aqlli qishloq xo‘jaligi” (smart agriculture) elementlari joriy etilmoqda. Dronlar yordamida yerlarni monitoring qilish, suv resurslarini raqamli boshqarish suv tanqisligi sharoitida O‘zbekiston uchun hayotiy zaruratdir.

Yangi O‘zbekistonning raqamli strategiyasi faqat texnikaga emas, balki insonga yo‘naltirilgan. Ta‘lim va tibbiyot sohalaridagi o‘zgarishlar buning yaqqol misolidir.

*Ta‘lim:* Ta‘lim tizimi raqamli iqtisodiyot talablariga asta-sekin moslashmoqda. Maktablarda dasturlashni o‘rgatish dasturlari joriy etilmoqda, biroq tadqiqotlar shuni

ko'rsatadiki, maktab o'quvchilarining faqat 40 foizi kompyuterdan foydalana oladi, qishloq joylarda esa bu ko'rsatkich 30 foizdan pastga tushadi.

Ushbu muammoni hal qilish uchun hukumat butun mamlakat bo'ylab IT-markazlar tarmog'ini (300 tadan ortiq) kengaytirmoqda va yoshlarga xalqaro IT-sertifikatlarini olganliklari uchun kompensatsiya to'lash tizimini joriy qilgan.

**2-jadval.**

**Aholi guruhleri kesimida raqamli ko'nikmalar muammolari va tavsiya etilayotgan choralar<sup>1</sup>**

Aholi guruhi	Kirish/ko'nikmalar muammosi	Tavsiya etilayotgan choralar
Hududlardagi yoshlar	Barqaror internet va uskunalar yo'qligi	Quyosh panellarida ishlaydigan bepul Wi-Fi zonalarini yaratish [7]
Kichik biznes subyektlari (KBS)	ERP/CRM tizimlari uchun mablag' yetishmasligi	Konsalting uchun "raqamli vaucherlar"ni joriy etish[8]
Qishloq aholisi	Past savodxonlik va interfeyslarning murakkabligi	Xizmatlarning gibrid onlayn-oflayn modellarini yaratish [12]
Davlat xizmatchilari	Konservativ yondashuv va avtomatlashtirishdan qo'rqish	IT-Parkda muntazam malaka oshirish kurslari [12]

"Bir million o'zbek dasturchisi" (One Million Uzbek Coders) loyihasi yoshlarga bepul IT ta'lim berish orqali kelajak kasblarini egallashga imkon yaratdi. Maktablarda "Kundalik.com" (hozirgi e-maktab) tizimining joriy etilishi o'qituvchilarni qog'ozbozlikdan qutqardi va ota-onalarga farzandining baholarini onlayn kuzatish imkonini berdi. Oliy ta'limga qabul jarayonining to'liq raqamlashtirilishi esa ko'p yillar davomida xalqning og'riqli nuqtasi bo'lgan "bunker" va korrupsiyaviy sxemalarni yo'q qildi.

*Tibbiyot:* Elektron poliklinika, elektron retsept va teletibbiyotning rivojlanishi tibbiy xizmat sifatini oshirmoqda. Tibbiy sug'urta tizimining joriy etilishi ham to'liq raqamli platformaga asoslanadi.

Raqamlashtirish muvaffaqiyati bevosita aholining raqamli savodxonligi darajasiga va malakali kadrlar mavjudligiga bog'liq. O'zbekiston yosh va dinamik aholiga ega bo'lsa-da, bazaviy raqamli ko'nikmalar darajasi nisbatan pastligicha qolmoqda: aholining faqat 15 foizi ilovalar bilan ishlashning standart ko'nikmalariga, atigi 7-8 foizi esa ilg'or ko'nikmalarga ega [7].

O'zbekistonning Markaziy Osiyoda raqamli yetakchilikka erishish yo'li bir qator kritik to'siqlar bilan bog'liq. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) va Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, asosiy to'siqlar quyidagilardir:

*Raqamli sektorda investitsiya taqchilligi:* Investitsiyalarning umumiy o'sishiga qaramay, raqamli sektorga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning (TXI) atigi 5 foizi to'g'ri keladi, OECD mamlakatlarida esa bu ko'rsatkich 24 foizga yetadi.

<sup>1</sup> Manbalar asosida muallif ishlanmasi

*Elektr ta'minotining yetarli darajada barqaror emasligi:* Raqamli infratuzilma uzluksiz quvvat talab qiladi, ba'zi qishloq hududlarida bu muammo provayderlar uskunalarning samaradorligini pasaytiradi [7].

*Kiberxatarlar va aholi ishonchi:* Kiberhujumlar sonining ortishi va ma'lumotlar sizib chiqishi holatlari fuqarolarning davlat platformalariga bo'lgan ishonchini pasaytiradi. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonunchilikning yangilanishi infratuzilma sur'atlaridan orqada qolishi biznes uchun huquqiy xatarlarni keltirib chiqaradi [12].

*"Aqlning oqib ketishi" (Brain drain):* O'zbekistonlik dasturchilarning xalqaro mehnat bozorida yuqori talabga ega bo'lishi eng iqtidorli mutaxassislarning xorijiy kompaniyalarni yoki relokatsiyani tanlashiga olib keladi, bu esa mahalliy kadrlar salohiyatini zaiflashtiradi [13].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamlashtirish asoslari va uning Yangi O'zbekistonni qurishdagi o'rnini tahlil qilar ekanmiz, shunday qat'iy xulosaga kelish mumkinki, bu jarayon mamlakat suvereniteti va taraqqiyotining garovidir. Raqamlashtirish - bu shunchaki modernizatsiya emas, bu svilizatsion siljishdir.

*Birinchiidan,* raqamlashtirish davlat boshqaruvining xarakterini o'zgartirdi. Avtoritar va yopiq tizimdan ochiq, shaffof va hisobdor tizimga o'tish aynan raqamli texnologiyalar yordamida tezlashdi. Virtual qabulxonalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali davlat organlarining xalq bilan muloqoti yangi bosqichga ko'tarildi. Bu "Yangi O'zbekiston"ning demokratik imijini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynamoqda.

*Ikkinchiidan,* iqtisodiy nuqtai nazardan, O'zbekiston o'zini mintaqaviy IT-xab (IT Hub) sifatida ko'rsatmoqda. Dengizga chiqish yo'li bo'lmagan mamlakat uchun "raqamli okean"ga chiqish - bu iqtisodiy izolyatsiyadan qutulishning yagona yo'lidir. Intellektual mahsulot eksporti transport xarajatlarini talab qilmaydi va yuqori qo'shimcha qiymat yaratadi.

*Uchinchiidan,* ijtimoiy adolatni ta'minlashda raqamli texnologiyalar «tenglashtiruvchi» vazifasini bajarmoqda. Boy yoki kambag'al, shaharli yoki qishloqli bo'lishidan qat'i nazar, yagona portal orqali barchaga bir xil standartdagi davlat xizmatini ko'rsatish ijtimoiy tengsizlikni yumshatishga xizmat qiladi.

Biroq, bu yo'ldan ortga qaytish yo'q. Kelajakda e'tiborni quyidagi jihatlarga qaratish lozim:

*Huquq va texnologiyalarni uyg'unlashtirish:* Raqamli platformalarga fuqarolarning huquqiy kafolatlarini avtomatlashtirish samaradorligini yo'qotmagan holda hisobga olish imkonini beruvchi moslashuvchan ma'muriy tartibga solish mexanizmlarini joriy etish zarur.

*Hududlarning inklyuziv rivojlanishi:* Davlat ko'magi yirik megapolislardan qishloq joylardagi raqamli infratuzilmani qo'llab-quvvatlashga, jumladan, kam ta'minlangan aholi qatlamlari uchun internet narxini subsidiyalashga yo'naltirilishi lozim.

*Xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish:* IT-Park imtiyozlarini raqamli yechimlarni joriy etuvchi iqtisodiyotning an'anaviy sektorlariga kengaytirish KOB segmentidagi «raqamli jar»ni yengib o'tishga yordam beradi.

*Kiberbardoshlilikni kuchaytirish:* Har qanday davlat axborot tizimini loyihalash bosqichidayoq kiberxavfsizlik talablarini integratsiyalashni ko'zda tutuvchi «Security by Design» modeliga o'tish fuqarolar ishonchini saqlashning garovidir.

*Sun'iy intellekt (AI)ni tartibga solish:* O'zbekiston sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo'yicha milliy strategiyani takomillashtirishi va uning etik hamda huquqiy asoslarini yaratishi kerak.

*Raqamli savodxonlikni ommaviy oshirish:* Nafaqat yoshlar, balki katta yoshdagi aholi qatlamining ham raqamli ko'nikmalarini oshirish bo'yicha milliy dasturlar kerak. Aks holda, jamiyatning bir qismi taraqqiyotdan uzilib qolishi mumkin.

*Milliy kontent va til:* O'zbek tilining raqamli makondagi o'rnini mustahkamlash, milliy qidiruv tizimlari va sun'iy intellekt modellarini o'zbek tilida gapirishga o'rgatish - milliy o'zlikni saqlash masalasidir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Yangi O'zbekiston - bu raqamli O'zbekistondir. Prezident tashabbusi bilan boshlangan raqamli islohotlar bugungi kunda o'z mevasini bermoqda, lekin asosiy hosil hali oldinda. Raqamli texnologiyalar mamlakatimizni Uchinchi Renessans sari yetaklovchi eng kuchli qanot bo'lib xizmat qiladi. Bu yo'lda davlat, biznes va fuqarolik jamiyatining hamjihatligi, innovatsiyalarga ochiqligi va dadil qadamlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Biz qurayotgan Yangi O'zbekiston poydevori kodlar va algoritmlardan emas, balki ular xizmat qiladigan inson qadri va farovonligidan iboratdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning veb sayti <https://president.uz/oz/lists/view/3848>
2. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". - Toshkent: "O'zbekiston", 2021. - 464 b.
3. Hamad, Almuftah & Vishanth, Weerakkody & Uthayasankar, Sivarajah. (2016). Comparing and Contrasting e-Government Maturity Models: A Qualitative-Meta Synthesis. <https://bura.brunel.ac.uk/bitstream/2438/13415/1/Fulltext.pdf>
4. Kawashita, Ilka & Baptista, Ana & Soares, Delfina. (2020). E-government maturity models: more of the same?. 58-66. <https://repositorium.uminho.pt/bitstreams/071d3b44-57cc-4561-b65c-5957d5d5d4e4/download>
5. Kh. F. Khursandov. Analysis of Uzbekistan position in the global ranking of electronic government services/ "Science and innovation" International scientific journal. Volume 4 Issue 5 may 2025. <https://scientists.uz/view?id=9095>
6. Heeks, Richard. (2015). A Better e-Government Maturity Model. [https://hummedia.manchester.ac.uk/institutes/gdi/publications/workingpapers/igov/short\\_papers/igov\\_sp09.pdf](https://hummedia.manchester.ac.uk/institutes/gdi/publications/workingpapers/igov/short_papers/igov_sp09.pdf)
7. J. Sharipov. Digital inequality - a barrier to the development of the regions of Uzbekistan <https://strategy.uz/index.php?news=2170&lang=en>

8. Davletova, Durдона & Buranova, Jaizra. (2022). Digital Transformation Processes in the Private and Public Sectors in Uzbekistan. Financial Technology and Innovation. 1. 29-34. <https://interspp.com/index.php/ijis/article/download/3047/2209/4338>

9. Abdullayev, D. (2025). Mechanisms for improving public administration efficiency in Uzbekistan based on the digital government practices of Estonia and South Korea. Oriental Journal of History, Politics and Law, 5(12), 573-582. <https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-05-12-71>

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabr PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

11. Saidov A. “O‘zbekistonda elektron hukumat va raqamli demokratiya”. *Huquq va burch* jurnali, 2023, №4.

12. R. Urinboyev, I. Khusainova. Challenges of the digitalization process in Uzbekistan. <https://media.neliti.com/media/publications/629013-challenges-of-the-digitalization-process-6bfad542.pdf>

13. N. Shermatova. Challenges and barriers to digital economy growth in Uzbekistan and solutions for tackling issues // CAJAR. 2025. №3-1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/challenges-and-barriers-to-digital-economy-growth-in-uzbekistan-and-solutions-for-tackling-issues>.

14. Gulyamov S., Rustambekov I. “Artificial Intelligence Law: Global Trends and Uzbekistan’s Perspectives”. International Journal of Law and Management, 2021.

15. Yunusov A. “Raqamli iqtisodiyot: nazariya va amaliyot”. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.

16. Axmadovich X. Z. et al. O‘ZBEKSTONDA SHAKLLANGAN TO‘QIMACHILIK KLASTERLARINING IQTISODIY SALOHİYATI VA SAMARADORLIGI //Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. - 2024. - T. 4. - №. 02. - C. 106-115.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhih:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, aprel, 4-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**